CHET TILLARINI O‘QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH (DIZAYN TA’LIMI MISOLIDA)

Djurayeva Nilufar Baxtiyorovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
E-mail: m6160210dj@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22702334

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot maqolasida oliy ta’lim muassasalarining dizayn yo‘nalishi talabalariga chet tillarini o‘qitish jarayonida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish masalalari kompleks tahlil qilinadi. Til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, kommunikativ va semiotik-kreativ yondashuvlar hamda vizual tafakkurga ega bo‘lajak dizaynerlarning kasbiy nutqiy faoliyatini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida muallif tomonidan ishlab chiqilgan semiotik-kreativ modelning pedagogik samaradorligi amaliy-tajriba sinovlari orqali tekshirilgan hamda statistik tahlillar yordamida asoslab berilgan. Shuningdek, talabalarning kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishda vizual va multimodal kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya, chet tilini o‘qitish, dizayn ta’limi, nutqiy faoliyat, semiotik-kreativ model, kasbiy muloqot madaniyati, vizual tafakkur, multimodal ta’lim.

Аннотация

В данной исследовательской статье комплексно анализируются вопросы формирования и развития межкультурной коммуникативной компетенции в процессе обучения иностранным языкам студентов дизайнерских направлений высших учебных заведений. Рассматриваются взаимосвязь языка и культуры, коммуникативный и семиотико-креативный подходы, а также теоретические и практические аспекты совершенствования профессионально-речевой деятельности будущих дизайнеров с развитым визуальным мышлением. В ходе исследования педагогическая эффективность разработанной автором семиотико-креативной модели была проверена путем опытно-экспериментальной работы и обоснована с помощью статистического анализа. Разработаны научно-практические рекомендации по использованию технологий визуальной и мультимодальной коммуникации в формировании профессионально-коммуникативной культуры студентов.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, коммуникативная компетенция, обучение иностранным языкам, дизайнерское образование, речевая деятельность, семиотико-креативная модель, профессиональная коммуникация, визуальное мышление, мультимодальное обучение.

Abstract

This research article comprehensively analyzes the formation and development of intercultural communicative competence in teaching foreign languages to higher education students majoring in design. The relationship between language and culture, communicative and semiotic-creative approaches, as well as theoretical and practical aspects of enhancing the professional speech activity

of future designers with well-developed visual thinking are covered. During the research, the pedagogical effectiveness of the semiotic-creative model developed by the author was tested through experimental work and substantiated using statistical analysis. Scientific and practical recommendations have been formulated for using visual and multimodal communication technologies to develop students' professional communication culture.

Keywords: intercultural communication, communicative competence, foreign language teaching, design education, speech activity, semiotic-creative model, professional communication culture, visual thinking, multimodal learning.

Kirish:

Bugungi jadal globallashuv va madaniyatlararo integratsiya sharoitida oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri — xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh, nafaqat o‘z kasbiy sohasining chuqur bilimdonlari, balki chet tillarida erkin va samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, dizayn, to‘qimachilik va moda sanoati kabi vizual-kreativ soha vakillari uchun chet tili faqatgina lingvistik lisoniy qoidalar majmui bo‘lib qolmay, balki xalqaro ijodiy muloqot, madaniyatlararo hamkorlik, vizual va kontekstual g‘oyalarni ifodalash hamda taqdim etishning (presentation skills) muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak dizaynerlar tayyorgarligi jarayonida muloqot madaniyatini va madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish psixologik-pedagogik jihatdan murakkab va ko‘p qirrali jarayondir [1]. Dizayn sohasi tabiatan ijod, vizual tafakkur, obrazli idrok, interfaol munosabatlar hamda multimodal kommunikatsiyaga asoslanadi. Shu sababli, dizayn yo‘nalishi talabalariga chet tillarini o‘qitish an’anaviy akademik yoki filologik ta’lim metodikasidan tubdan farq qilishi, ularning ixtisoslik xususiyatlariga va psixofiziologik tafakkur tarziga moslashgan bo‘lishi lozim.

Muammoning dolzarbligi va o‘rganilish darajasi. Madaniyatlararo muloqot va uni ta’lim jarayoniga tatbiq etish masalalari jahon va mahalliy pedagogika fanida keng tadqiq qilingan. Xususan, M. Byram madaniyatlararo muloqot kompetensiyasining (Intercultural Communicative Competence — ICC) nazariy asoslarini yaratib, chet tili mashg‘ulotlari talabalarga turli madaniyat vakillari bilan muloqotda murosa qilish va hamkorlikda umumiy muammolarni hal etish ko‘nikmasini berishini ko‘rsatib o‘tgan [2]. D. Hymes esa lingvistik kompetensiyadan farqli o‘laroq, muloqot jarayonida ijtimoiy ва madaniy omillarning hal qiluvchi o‘rnini ko‘rsatuvchi "kommunikativ kompetensiya" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritdi.

Shuningdek, o‘zbekistonlik va xorijlik tadqiqotchilar (N.B. Djurayeva, D. Sherali, N. Latofat, R. Radhika va boshqalar) talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish, ta’limda innovatsion strategiyalar hamda vizual madaniyat vositalaridan foydalanish bo‘yicha turli pedagogik va psixologik modellashtirish ishlarini amalga oshirganlar [3, 4, 7, 8, 9]. Biroq, dizayn va texnik ta’lim yo‘nalishi talabalarining spetsifik xususiyatlarini — ularning vizual-obrazli tafakkurini chet tili ta’limiga pedagogik-semiotik integratsiya qilish masalalari hali ham yetarlicha to‘liq va kompleks tadqiq etilmagan.

Tadqiqot maqsadi: Dizayn yo‘nalishidagi talabalarga chet tillarini o‘qitish jarayonida semiotik-kreativ modelga asoslangan metodikani qo‘llash orqali ularning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini hamda kasbiy muloqot madaniyatini shakllantirishning nazariy-amaliy samaradorligini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi va metodlari:

Tadqiqot 2024–2026 yillar davomida Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Dizayn yo‘nalishi (bakalavr bosqichi) talabalari o‘rtasida olib borildi. Tadqiqotda umumiy ҳсобда 120 nafar talaba ishtirok etdi (60 nafar Nazorat guruhi — NG va 60 nafar Tajriba guruhi — TG).

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar va metodologik yondashuvlar majmuidan foydalanildi:

1. **Nazariy-tahliliy metodlar:** Chet tilini o‘qitish metodikasi, madaniyatlararo muloqot nazariyasi hamda psixolingvistika bo‘yicha ilmiy-metodik va pedogogik manbalarni tahlil qilish, taqqoslash hamda umumlashtirish.

2. **Semiotik-kreativ modellashtirish:** Til, belgi, Vizual Obraz va madaniy semantika integratsiyasiga asoslangan ta’lim modelini ishlab chiqish hamda o‘quv jarayoniga tatbiq etish [5, 9].

3. **Empirik metodlar:** Pedagogik kuzatuv, so‘rovnomalar, test sinovlari, loyihaviy topshiriqlar (Project-Based Learning) va talabalar taqdimotlarini baholash.

4. **Matematik-statistik metodlar:** Tajriba-sinov natijalarining haqqoniyligini va ishonchliligini tasdiqlash uchun Talabaning t- kriteriysi hamda foizli o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tahlili .

Semiotik-kreativ modelning mazmuni va komponentlari

Dizayn yo‘nalishi talabalari uchun yaratilgan **Semiotik-kreativ model** til va madaniyatni tushunishda vizual semiotika (belgilar va ramzlar tizimi) hamda kreativ fikrlashni birlashtiradi. Ushbu model 4 ta asosiy blokdan tashkil topgan:

SEMIOTIK-KREATIV MODEL	
1. Kognitiv-semiotik blok	Madaniy belgilar va lingvistik ramzlarni anglash hamda semantik taqqoslash.
2 Vizual-kommunikativ blok	G'oyalarni vizual (eskiz, moodboard) va og'zaki nutq sintezida taqdim etish.
3.Kulturologik-kreativ blok	Turli madaniyatlarning dizayn an'analarini chet tilida tahlil qilish hamda muhokama
4. Refleksiv-baholash blok	Kasbiy muloqotda uslubiy va madaniy xatolarni tuzatish, o'z-o mezoniy baholash

Ta’lim jarayonida o‘qitish quyidagi amaliy metodlar va topshiriqlar orqali amalga oshirildi:

"Visual-to-Verbal" (Vizualdan matnga) mashqlari: Talabalarga turli madaniyatlarga mansub liboslar, interyer dizayni ёki brend logotiplari tasvirlangan vizual materiallar berilib, ularning madaniy va semiotik va ramziy ma’nolarini chet tilida og‘zaki tahlil qilib berish topshirildi.

Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning - PBL): Talabalar guruhlarga bo‘lingan holda xalqaro dizayn loyihalarini (masalan, "Etnik motivlarning zamonaviy modadagi o‘rni") ingliz tilida tayyorlab, uni taqdimot (presentation) va bahs-munozara shaklida ҳимоя қилдилар.

Madaniyatlararo keys-stadilar: (Turli madaniyat vakillari (buyurtmachi va dizayner) o‘rtasidagi kasbiy muloqotda yuzaga keladigan madaniyatlararo tushunmovchiliklar (misol uchun, ranglar semantikasi, muloqot etiketi) vaziyatli mashqlar orqali tahlil qilindi [6, 8].

Tadqiqot natijalari

Pedagogik tajriba-sinov ishlari bosqichma-bosqich амалга оширилди. Tajriba бошида (aniqlovchi босқич) ва охирида (shakllantiruvchi босқич) NG hamda TG talabalarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi darajasi 3 ta asosiy mezon bo‘yicha baholandi:

Lingvistik va kasbiy leksik kompetensiya: Kasbiy terminologiya va grammatik strukturani to‘g‘ri qo‘llay olish.

Sotsiokulturoloqik va semiotik kompetensiya: Vizual va madaniy belgilarning ma’nosini anglash, madaniyatlararo muloqot me’yorlariga rioya qilish.

1-jadval. Tajriba-sinov ishlarining bosqichma-bosqich ko‘rsatkichlari (talabalar soni va % hisobida)

Guruhlar	Bosqich	Qoniqarli (Past)	O‘rta	Yuqori
Nazorat guruhi	Tajriba	26 nafar	24 nafar	10 nafar

(NG) ($n=60$)	boshida	(43.3%)	(40.0%)	(16.7%)
	Tajriba oxirida	20 nafar (33.3%)	27 nafar (45.0%)	13 nafar (21.7%)
Tajriba guruhi (TG) ($n=60$)	Tajriba boshida	27 nafar (45.0%)	23 nafar (38.3%)	10 nafar (16.7%)
	Tajriba oxirida	**6 nafar (10.0%)**	**22 nafar (36.7%)**	**32 nafar (53.3%)**

Kommunikativ-interfaol va kreativ kompetensiya:

Real muloqot vaziyatlarida, taqdimot va bahs-munozaralarda o‘z fikrini erkin, mantiqiy hamda ta’sirchan yetkaza olish. Har bir mezon бўйича натижалар 3 та даражада (Yuqori, O‘rta, Qoniqarli/Past) баҳоланди.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba boshida har ikki guruhda ham ko‘rsatkichlar deyarli bir xil bo‘lib, past va o‘rta darajadagi talabalar ko‘pchilikni tashkil etgan. Biroq, semiotik-kreativ model va innovatsion kommunikativ strategiyalar tatbiq etilgandan so‘ng Tajriba guruhida (TG) sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Yuqori darajaga ega talabalar ulushi TGda 16.7% dan **53.3%** ga ko‘tarildi (o‘sish +36.6%). Nazorat guruhida esa an’anaviy o‘qitish usuli saqlanib qolgani sababli yuqori daraja ko‘rsatkichi bor-yo‘g‘i 16.7% dan 21.7% ga (o‘sish +5.0%) oshgan, xolos.Olingan natijalarning statistikasi ishonchliligini tekshirish uchun Talabaning t- kriteriysi formulasi qo‘llanildi. Natijada T {amp} = 4.12qiymati olindi. Bu ko‘rsatkich $p < 0.01$ ahamiyatlilik darajasida jadval qiymatidan (t{krit} = 2.61) yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi va tajriba natijalarining tasodifiy emasligini ilmiy jihatdan to‘liq tasdiqlaydi.

Natijalar muhokamasi

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, chet tillarini o‘qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish shunchaki lisoniy leksikani oshirish bilan cheklanmaydi. Ayniqsa, dizayn ta’limi misolida bu jarayon talabalarning kasbiy ва vizual tafakkur xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq holda kechadi.

Olingan natijalar M. Byramning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi modeli hamda D. Hymesning kommunikativ kompetensiya nazariyalarini amaliy jihatdan boyitadi [2]. Tadqiqotimiz shuni isbotladiki:

Vizual-muloqot sintezi: Dizayner talabalar uchun chet tili darslarida matnlar bilan ishlashdan ko‘ra visual belgilar, interyer va costume madaniyati, dizayn tarixi hamda ramzlar semantikasini o‘rganish orqali til o‘rganish motivatsiyasi keskin ortadi.

Kasbiy nutq madaniyati: Muloqot jarayonining samaradorligi talabalarning faqat grammatik to‘g‘ri gapirishiga emas, balki shaxsiy fazilatlari, samimiylik, madaniy me’yorlarga rioya qilish, tinglash hamda og‘zaki va noverbal (vizual) vositalarni to‘g‘ri uyg‘unlashtirishiga bog‘liq [4, 5].

Uslubiy aniqlik: Kasbiy muloqotda uslubiy va madaniy to‘g‘rilikka rioya etmaslik xalqaro dizayn loyihalarida va hamkorlikda tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Semiotik-kreativ model talabalarga madaniy kontekstni anglashga va mos muloqot uslubini tanlashga yordam berdi.

Oldingi tadqiqotlardan (masalan, Radhika R., 2017; Djurayeva N., 2024) farqli o‘laroq, ushbu ishda ilk bor dizayn ta’limi yo‘nalishi uchun moslashtirilgan visual-semiotik mashqlar majmui va interfaol loyihaviy yondashuv yaxlit metodik tizim holatiga keltirildi [3, 7, 9].

Xulosa va tavsiyalar

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak dizaynerlarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy pedagogika va chet tillarini o‘qitish metodikasining eng ustuvor va

innovatsion yo‘nalishlaridan biridir. Olib borilgan nazariy ва amaliy-tajriba tadqiqotlari natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. **Nazariy xulosa:** Til va madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bo‘lajak dizaynerlarda kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirish ularning ixtisoslik xususiyatlari (vizual tafakkur, obrazli idrok, multimodal kommunikatsiya) bilan integratsiyalashgan holda olib borilishi zarur.

2. **Amaliy xulosa:** Chet tili darslarida amaliyotga joriy etilgan **Semiotik-kreativ model** talabalarning lingvistik, sotsiokulturoloqik hamda kasbiy-kommunikativ ko ko‘nikmalarini kompleks oshirishga xizmat qildi. Tajriba guruhi talabalarining yuqori darajadagi ko‘rsatkichi 16.7% dan 53.3% ga ko‘tarilib, metodikaning pedagogik samaradorligi statistik jihatdan tasdiqlandi.

Amaliy tavsiyalar:

O‘quv dasturlarini takomillashtirish: Dizayn, to‘qimachilik va moda yo‘nalishlari uchun chet tili (ESP — English for Specific Purposes) fan dasturlariga vizual semiotika, madaniyatlararo brending hamda dizayn etiketi bo‘yicha amaliy modullarni kiritish;

Interfaol va visual metodlarni kengaytirish: Mashg‘ulotlarda Project-Based Learning (PBL), visual moodboard taqdimotlari hamda interfaol keys-stadi texnologiyalaridan unumli foydalanish;

Raqamli ta’lim resurslari: Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatida xalqaro dizayn platformalari, raqamli ko‘rgazmalar va multimodal axborot resurslaridan foydalanib,muloqot ko‘nikmalarini muntazam oshirib borishni taminlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Djurayeva N.B. Bo‘lajak dizaynerlarda muloqot madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. — Toshkent, 2026. — 150 b.
2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. — Clevedon: Multilingual Matters, 1997. — 136 p.
3. Djurayeva N.B. Talabalarda samarali muloqotni rivojlantirish uchun innovatsion ta’lim strategiyalarining ahamiyati // O‘zMU Xabarlari (News of the NUUz). — 2024. — Vol. 1, No. 1. — DOI: https://doi.org/10.69617/nuuz.v1i1.5.2.4103.
4. Sherali D., Latofat N. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi kommunikativ munosabatining psixologik xususiyatlari // International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. — 2023. — S. 328-331.
5. Djurayeva N.B. Bo'lajak dizaynerlarda muloqot madaniyatini rivojlantirish // Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti Ilmiy Axborotlari ilmiy-nazariy jurnali. — 2023. — №5. — ISSN 2181-9580.
6. Djurayeva N.B. Development of communication skills among students of technical universities // Educational Research in Universal Sciences (ERUS). — 2023. — Vol. 2, No. 8 (Special issue).
7. Radhika R. The Importance Of Communicating Culture In English Language Teaching // An International Peer-Reviewed Open Access Journal (UGC Approved Journal - Arts & Humanities). — 2017. — Sr. No. 49124.
8. Djuraeva N. The Importance of Practical Strategies for Teaching the Culture of Communication // Evraziyskiy zhurnal sotsialnyx nauk, filosofii i kultury. — 2025. — 5(12), 214–217. — DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.18058611.
9. Djurayeva N. Improving Strategies for Fostering a Communication Culture Among Emerging Designers // International Bulletin of Applied Science and Technology. — 2025. — Vol. 5, Issue 1. — pp. 351–354. — DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.14810802.